

# **«SOHIBQIRON»**

*(savol-javoblar)*

[https://t.me/Ona\\_tili\\_va\\_adabiyot\\_N1](https://t.me/Ona_tili_va_adabiyot_N1)  
(havola ustiga bosing va kanalimizga a'zo bo'ling)

*@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1*

## **@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1**

1. "Sohibqiron" qanday asar?

J.: Besh pardali she'riy drama

2. Shiltberger, Ioan Sultoniy, Borchiq singari qahramonlar qaysi asarda uchraydi?

J.: "Sohibqiron"

3. "Sohibqiron" dramasi qaysi holat tasviri bilan boshlanadi?

J.: Amir Temurning soch oldirish jarayoni bilan

4. Amir Temur "Odamzodni bir daqiqa bejilov qo'ysang G'ajib tashlar, yeb bitirar birbirlarini" deb kimga aytadi?

J.: Sartaroshga

5. Amir Husaynni kim bandi qilib keltiradi?

J.: Kayxisrav

6. Amir Husayn kim?

J.: Uljoy Turkonning akasi, Amir Temurning qayin og'asi

7. Buqalamun nomi bilan tanilgan qahramonning asl ismi nima?

J.: Itolmas

8. Yasovul nomi bilan tanilgan qahramonning asl ismi nima?

J.: Qosimbek

9. Yasovul nomi bilan tanilgan qahramon asli qayerlik edi?

J.: Keshlik

10. Amir Temur minib yurgan ot qanday nom bilan ataladi?

J.: Kuno'g'lon

11. Amir Temur bilan bir necha yildan beri shatranj o'ynab yurgan mohir shatranjchi kim? J.: Aloviddin

12. Amir Temur Qosimbekka Boyazidning mag'lubiyati haqida xabar keltirgani uchun qanday saxovat ko'rsatadi?

J.: O'zining nabiralaridan birini nikohlاب bermoqchi bo'ladi

13. Muallif o'z nuqtayi nazarini kimning qarashlari orqali beradi?

J.: Yassaviy

14. "Shabxun" so'zi nimani anglatadi?

J.: Tungi hujumlarni

15. Umrida hech kitob ko'rmay ulg'aygan, deya kim ta'riflanadi?

## **@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1**

J.: Amir Husayn

16. Temur "ulug‘ bir zot yashab o‘tgan zaminimizda" deganda kimni nazarda tutgan?  
J.: Yassaviyini

17. Madrasaga berkingan Amir Husaynni hokim Kayxusrav nimasidan tanib qoladi?  
J.: Zarbof to‘nidan

18. Amir Temur tajribali hukmdor va o‘ychil mutafakkir sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanch deb nimalarni nazarda tutadi?

J.: Mo‘l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar

19. Olamni kuch bilan bosib olgandan, odamlar dilini haq so‘z bilan zabit etish to‘g‘riroqligi haqidagi fikr kimning shaxsiyatini ifodalaydi?

J.: Yassaviyning

20. Amir Temur shatranjning qaysi donasini "haqiqat qilichidek keskir, beomon" deb ta’riflaydi?

J.: Ruxni

21. Uchta mullavachchaning orzulari haqida so‘z yuritilgan asar qaysi asar?

J.: "Sohibqiron"

22. Ma’lumki, asarda uchta mullavachchaning orzulari haqida so‘z yuritilgan.  
Ulardan biri to‘ygunicha palov yeishni, ikkinchisi to tonggacha

kitob o‘qishni orzu qiladi. Uchinchisi-chi?

J.: Bibixonim visoliga yetishni

23. Amir Temur Hazrati Yassaviy maqbarasidan chiqib yo‘lda bir darvish bilan suhbatda bo‘ladi.

Darvish aslida kim edi?

J.: Xizr alayhissalom

24. Amir Temur "Sen Qozog‘on nabirasi! men barloszoda!" deb kimga murojaat qiladi?

J.: Amir Husaynga

25. Amir Temurga qarata kim "Taqdirga la’nat!

Tiriklayin sen Iblisga ro‘baro‘ qildi" deb aytadi?

J.: Amir Husayn

26. Amir Temur kimga qarata "Odamlarning shajarasi daryolar kabi Bir-biriga qo‘silmog‘i shubhasiz, bor gap. Sening bobong Chingiz emas, aslida Hasad" deb aytadi?

J.: Amir Husaynga

## ***@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1***

27. Amir Temur Jete bilan jangda - Loy jangida o‘n ming askar halok bo‘lgani haqida kimga ta’na qiladi?

J.: Amir Husaynga

28. Har sakkiz yuz yilda bir sohibqiron tug‘ilishi haqida kim so‘zlaydi?

J.: Shayxulislom

29. Kayxisravning otasi | Badaxshonning hokimini kim o‘ldirgan?

J.: Amir Husayn

30. "Bu | Temur uchun" degan yozuvi bor kamon o‘qi kimning sadog‘idan chiqadi?

J.: Amir Husaynning

31. Amir Temurning bir oyog‘i va bir qo‘li qayerda yaralanadi?

J.: Sajiston (Seyjiston)da

32. Amir Temurning bir oyog‘i va bir qo‘li yaralanganda kim malham qo‘yadi?

J.: Amir Husayn

33. Tuz aynisa uni hech narsa tuzata olmasligi haqida qaysi asarda fikr bildirilgan?

J.: "Sohibqiron"

34. Amir Temur Amir Husaynga "Aynan senga mo‘ljallangan bir juft o‘qdir bu" deganda nimani nazarda tutgan?

J.: Yassaviyning ikki misra she’rini ("Nafsim meni yo‘ldan urib xor ayladi, Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi")

35. Muntazirmiz amringizga, o, Sohibqiron,  
Siz amr eting | kemirgaymiz Ko‘hi Qofni ham,  
Siz amr eting | simirgaymiz Bahri ummonni.  
Kuch olgaymiz shijoat-u himmatingizdan,  
Sizga sodiq bo‘lurmiz deb qasam ichganmiz.  
Ushbu parcha kim tilidan aytilgan?

J.: Barlos Bahodir

36. Sizning aziz joningizga otilgan har o‘q  
Eng avvalo, kelib tekkay bizning ko‘krakka,  
Nomard yovni agarda Siz kechirsangiz ham,  
Biz mutlaqo kechirmasmiz. Ketgaymiz tarqab.  
Ushbu fikrni Amir Temurga kim aytgan?

J.: Barlos Bahodir

37. Mana bugun barham topti ikkita umr,  
Ikkisi ham bir onadan tug‘ilgan edi.  
Biri singil, biri aka | izma-iz ketdi.

## **@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1**

Birovining mehri qancha bepoyon bo'lsa  
Ikkinchisin g'arazi ham shuncha mo'l edi.  
Ushbu parchada tilga olingan aka-singil kim?  
J.: Amir Husayn va Uljoy Turkon

38. Uljoy Turkonni kim o'ldiradi?

J.: Amir Husayndan topilgan zaharlangan kamon o'qi bilan o'zini o'zi o'ldiradi

39. Nahotki iblis och bo'ridek bir qo'zini albatta yegay.

Bu g'alati jarayondaadolat bormi?

Yayrab yurar nega shayton korandalari?

Nega ko'pdır nayrangboz-u kazzob kimsalar?

Nega bosgan yer yuzini buncha ko'p illat?

Men zaminni tozalashim kerak ulardan.

Ajal mudom bekinmachoq o'ynar biz bilan

Men o'limdan qo'rquamammi?

Ko'p chigal savol...

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J.: "Sohibqiron"

40. Nechanchi sahna Qur'on tilovati bilan yakunlanadi?

J.: Birinchi

41. Chingizning qonunlar to'plami nima deb ataladi?

J.: Yaso

42. Amir Temurning qonunlar to'plami nima deb ataladi?

J.: Tuzuk

43. Qaysi asarda "Suruv bitta bo'lsa agar, cho'ponlar soni qisqargaydir!" degan hikmat qo'llangan?

J.: "Sohibqiron"

44. Qaysi asarda "Urushlarni daf etishning yo'li qonunlarga har kimning so'zsiz riox qilishidir" degan hikmat qo'llangan?

J.: "Sohibqiron"

45. Amir Temur tashlandiq yerni obod qilgan kishini necha yillik soliqdan ozod qiladi?

J.: 3 yillik

46. Ibn Arabshohning asli qayerlik ekani aytilgan?

J.: Shomlik

47. Olampanoh,

## **@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1**

Yosh bolalik chog‘imda meni  
Samarqandga asir qilib olib kelganlar.  
Ilmu urfon Makkasidir bu kun Samarqand.  
Yetti iqlim me’morlari, muhandislari  
Siz tufayli jam bo‘lmishlar ushbu shaharda.  
Ushbu parcha kimning tilidan aytilgan?  
J.: Ibn Arabshoh

48. Qaysi qahramon o‘zining vosvos kasaliga yo‘liqqani haqida Amir Temurga so‘zlaydi?

J.: Ibn Arabshoh

49. Harb ilmining poydevorin qo‘ygansiz, hazrat,  
Alal-abad bu istehkom qo‘zg‘almas sira.  
Qo‘sishnlarning saflariga Siz bergen tartib  
Shoirlarning misrasidan ko‘ra quymaroq.  
Ushbu parcha kimning tilidan aytilgan?

J.: Barlos Bahodir

50. Amir Temur qaysi nabirasiga otasining ismini qo‘ygan?

J.: Ulug‘bekka (Tarag‘ay)

51. Amir Temur qaysi vazirini otboqar vazifasiga tayinlaydi?

J.: Muhammad Qovchinni

52. Amir Temur qaysi vazirining zarbof to‘nini otboqarga sovg‘a qiladi?

J.: Muhammad Qovchinni

53. O‘z ismining ma’nosini bilmaydigan chopar kim?

J.: Borchiq

54. Sarandibdan chopar bo‘lib kim keladi?

J.: Borchiq

55. Amir Temur chopar Borchiq bilan nega gaplashmaydi?

J.: O‘z ismining ma’nosini bilmagani uchun

56. Boyaziddan elchi bo‘lib kim keladi?

J.: Sulton Shabli

57. Boyazid Amir Temurga maktubida kimning nomini oltin bilan yozdiradi?

J.: O‘z ismini

58. Boyazid Amir Temurga maktubida kimning nomini oddiy siyohda yozdiradi?

J.: Amir Temurning

## **@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1**

59. Urush bilan hal bo‘lajak bu mojarolar.  
Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur,  
Bilib qo‘yki, xotinlaring uch taloq bo‘lgay.  
Agar seni yenga olmay chekinsam ortga  
Unda mening xotinlarim bo‘lsin uch taloq.  
Ushbu parcha kim tilidan aytilgan?  
J.: Boyazid

60. Amir Temur o‘zining xufyalari orasida eng epchili deb kimni biladi?  
J.: Buqalamunni

61. Mashhur shatranjchi Aloviddinni Amir Temurning qaysi nabirasi yengadi?  
J.: Ulug‘bek

62. Amir Temur Boyazida qarshi urushda sultanatini kimga qoldiradi?  
J.: Bibixonim va nabirasi Muhammad Sultonga

63. Amir Temur kimni sultanat atalmish oltin uzukning buyuk bezagi - yoqut ko‘zi deb biladi?

J.: Bibixonimni

64. Amir Temur Boyazida qarshi urushda Samarqand hokimligini kimga qoldiradi?  
J.: Xo‘ja Yusufga

65. Amir Temur xotinini ichkilik ta’sirida nohaq kaltaklagani uchun qaysi o‘g‘lini zindonga tashlaydi?

J.: Mironshohni

66. Ikkinci sahna qanday yakunlangan?  
J.: Mironshohning zindonband qilinishi bilan

67. Mariya kim?  
J.: Boyazidning suyukli xotini

68. Boyazida qarshi urushda Amir Temur qo‘shinining o‘ng qanotiga kim rahbarlik qiladi?

J.: Mironshoh

69. Boyazida qarshi urushda Amir Temur qo‘shinining chap qanotiga kim rahbarlik qiladi?

J.: Shohrux

70. Boyazidga qarshi shiddatli jang ketayotganda Amir Temur o‘zining chodirda bemalol shatranj o‘ynab o‘tirishini qanday izohlaydi?

## ***@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1***

J.: O‘zini go‘yo jangga beparvo ko‘rsatib, raqibini tahlikaga solmoqchi bo‘lgani bilan

71. Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin  
Buzilgaydir o‘rmonning ham qonuniyati.  
Ushbu hikmat qaysi asardan olingan?

J.: "Sohibqiron"

72. Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq  
Cho‘ng temirga urilding-u chilparchin bo‘lding.  
Ushbu parchadagi "qudratli chaqmoq" va "cho‘ng temir" deganda kimlar nazarda turilgan?

J.: Boyazid va Amir Temur

73. Men bir lang-u, Sen esa ko‘r, notavon so‘qir.  
Ushbu parchadagi "lang" va "ko‘r, so‘qir" deganda kimlar nazarda turilgan?  
J.: Amir Temur va Boyazid

74. Iso, Muso, Mustafo, Sulaymon nomlari kimning o‘g‘illari sifatida tilga olinadi?  
J.: Boyazidning

75. Boyazidning qaysi o‘g‘lining asir olingani aytiladi?  
J.: Muso

76. Boyazidning g‘ayridin xotini sifatida kim tilga olinadi?  
J.: Mariya

77. Boyazidning Mariya ismli xotini kimga tortiq qilinadi?  
J.: Buqalamunga

78. Farang elchisi kim?  
J.: Ioan Sultoniy

79. Farang sultoni kim?  
J.: Qirol Sharl

80. Bovarlar o‘lkasining elchisi kim?  
J.: Shiltberger

81. Bovarlar hukmdori kim?  
J.: Genrix

82. Amir Temur qaysi imoratni "tovuq katagi" deb ataydi?  
J.: Mahmud Dovud degan vazir va Samarqand dorug‘asi tomonidan o‘ziga atab qurilgan masjidni

## ***@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1***

83. Bahor madhiga bag‘ishlangan kimning g‘azali to‘laligicha keltirilgan?

J.: Nosiruddin Rabg‘uziyning

84. Qosimbekka nikohlangan Amir Temur nabirasi kim?

J.: Zubayda

85. Sharif kim?

J.: Amir Temur tog‘asining o‘g‘li, Konigildagi to‘yda qutlash uchun Keshdan kelgan kishi

86. Sarandib elchisi Borchiq Konigildagi to‘yda nima sovg‘a bilan keladi?

J.: Sher olib keladi

87. Ispaniya elchisi kim?

J.: Klavixo

88. Tepasida laylak qanot yoyib turgan paxtadan yasalgan minora bilan Konigildagi to‘yga kimlar ishtirok etadi?

J.: Andijonliklar

89. Konigildagi to‘yga qaysi yurt elchilari olmos ko‘zli oltin qarchig‘ay va silovsin po‘stin bilan tashrif buyuradi?

J.: O‘rusiya (rus) elchilari

90. Qaysi yurt elchisi sovg‘a-salomsiz keladi va aksincha Amir Temurdan o‘lpon talab qiladi?

J.: Chin elchisi

91. "Oddiygina kiyik bolasini asrab qolgan kishi jannat vasliga erishadi" degan hikmat kimga tegishli?

J.: Konfutsiyga

92. Amir Temur onasining ismi nima?

J.: Neko‘zbegim

93. Beshinchi sahma qanday tasvir bilan boshlanadi?

J.: Yassaviy maqbarasi tasviri bilan

*@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1*

*@Ona\_tili\_va\_adabiyot\_N1*